

Date: 9th December-2025

ALISHER NAVOIY IJODIDA “SO`Z” NING BADIY TALQINI

Choriyeva Madina Bobonazarovna

Osiyo Xalqaro Universiteti I bosqich magistranti

madinachoriyeva55@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada ulug` o`zbek shoiri va mutafakkiri Alisher Navoiy ijodida “so`z” va uning badiiy talqini yuzasidan fikr-mulohazalar bayon qilinadi, shoir ijodidan namunalarning badiiy tahlili asosida badiiy so`zning ifoda imkoniyatlari, insonning badiiy didi takomili, estetik dunyoqarashining rivoji, ma`naviy kamolotiga ta`siri masalalari yoritiladi.

**Kalit so`zlar:** Alisher Navoiy, ijodiy meros, badiiy adabiyot, suxan-so`z, so`z ta`rifi, tahlil, badiiy talqin, badiiy-estetik dunyoqarash, ma`naviy kamolot.

Kirish. Ma`lumki, adabiyotning so`z san`ati ekanligi, uning birlamchi unsuri til ekanligi to`g`risidagi haqiqatni hech kim hech zamonda inkor etgan emas. Bashariyat tarixida adabiyot atalmish dunyoni obrazli idrok etish san`ati yaralibdiki, uning ifoda vositasi bo`lgan so`zni, tilni talqin etishdek mashaqqatli yumush inson tasavvuri va tafakkurini muttasil band etib keladi. Insonning komillikka erishishiga, uning o`zligini anglashiga ta`sir ko`rsatadigan vositalar orasida, ayniqsa, adabiyot alohida ajralib turadi. Chunki adabiyot insonning qalb quvvati va aql-tafakkuri rivojini o`ziga xos tarzda mujassamlashtiradi. Buyuk ma`rifatparvar adib Abdurauf Fitrat: “Adabiyot — fikr, tuyg`ularimizdagi to`lqunlarni so`zlar, gaplar yordami bilan tasvir qilib, boshqalarda ham xuddi shu to`lqunlarni yaratmoqdir”<sup>11</sup>, - deganida nechog`lik haq edi. Shubhasiz, bu borada ulug` shoir Alisher Navoiy turkiy tilimiz va adabiyotimizning yalovbardori sifatida haqli ravishda tilga olinadi. Zero, ulug` shoir qoldirgan merosning miqyosi keng, mag`zi to`q, tagzamini shu qadar chuqurki, muxlislari tadqiqotchilar hali hanuz uning sirlari poyoniga yetgan emaslar. Ta`kidlash joizki, ulkan iste`dod sohibi yaratgan asarlar insoniyatning mangu qadriyati sifatida baholanadi, ardoqlanadi, o`rganilib kelinadi. Navoiy asarlari adabiyotimizning beqiyos namunalari, ma`naviyatimizning bebaho ganjinalari sifatida asrlar davomida talqin etilishi, yangigan yangi qirralarining kashf etilishining boisi shundandir. Darhaqiqat, badiiy adabiyot turli davrlardagi xalq hayotini, inson ruhiyatining o`zig xos qirralarini kashf etuvchi san`at darajasida qadrlanar ekan,¹² bu o`rinda uning yaratuvchisi so`z san`ati ijodkorlarining xizmatlari ham beqiyosdir. Shubhasiz, ijod ahli orasida shoir va mutafakkir Navoiy hazratlarining alohida o`rni bor. Badiiy adabiyotimizning o`lmas namunalari ijodkori Alisher Navoiy o`z g`oyalari bilan o`tmish, bugun va kelajakni bog`laydi. Bu bog`lanish esa, shunchaki vaqtni emas, balki inson ruhiyati, tafakkuri va orzu-umidlarini ifodalagani uchun ham qadrlidir.

**Mavzuning o`rganilganlik darajasi.** Badiiylik hayotning go`zallikka chulg`angan ko`rinishi, deb ta`riflanadi. Kitobxon nazdida bu go`zallik she`r, hikoya, qissa, roman va

¹¹ Фитрат А. Танланган асарлар. IV жилд. —Тошкент: Маънавият, 2006. 12-13-бетлар.

¹² B.To`xliyev, Adabiyot (AL va KHK uchun darslik). – T.: O`qituvchi, 2002. – 9-bet.



Date: 9th December-2025



hokazo ko`rinishlarda namoyon, desak mubolag`a sanalmaydi. Zero, kitobxon badiiy ijod, so`z san`ati namunalarni o`qish, so`ngra esa ularni uqish davomida murakkab jarayonni boshdan kechiradi. Bu to`g`rida adabiyotshunos olim A. Rasulov shunday deydi: “O`zlashtirish qanchalik murakkab jarayon bo`lsa, o`zlashtirilgan go`zallikni, xususan, asarni qaytadan yuzaga keltirish – talqin etib berish shunchalaik nozik, jiddiy ruhiy-ijodiy, ilmiy-tadqiqiy jarayondir”¹³. Aytish joizki, ajdodlar merosiga munosib voris sifatida maydonga chiqqan izdoshlar bu vazifani mas`uliyat bilan davom ettirishdi.

Alisher Navoiy ijodi, asarlari o`zbek tilini mumtozlik cho`qqisiga olib chiqdi. U turkiy tilda 104 ming, forsiyda 10 ming misradan ko`p she`r yozdi. Shuningdek, Navoiy nasriy asarlarida bir million 378 ming so`z ishlatgan. Umuman, Navoiy asarlarida 26 mingdan ortik so`z qo`llanganki, u Pushkin, Servantes, Shekspir qo`llagan so`zlardan ancha ko`p. Ta`kidlash joizi, badiiy asar qimmatli asarlar miqdori, qo`llangan so`zlar soni bilan belgilanmaydi. Badiiy qadriyat deganda san`atning o`lmas asarlari: jonli, jozibali so`zlar, adabiy san`atlar go`zalligi, muhimi, asarlardagi mazmunning teran va ko`lamlilik nazarda tutiladi. Badiylik — so`z sehrini ko`z-ko`z qilish, uning sir-sinoatlarini ochib berishdir. Alisher Navoiy ijodiy merosini o`rganish va tadqiq etishda adabiyotshunos olimlardan A.Qayumov, A.Hayitmetov, N.Komilov, I.Haqqulov, R.Vohidov va boshqalarning izlanishlari diqqatga sazovor. Ularda so`z, ma`no va badiiyat masalalari, Navoiy poetikasining g`oyaviy-badiiy xususiyatlari, ijodiy mahorat qirralari yoritilgan. Shoir asarlari besh asrdan ziyod vaqtdan beri talqin, tahlil qilinadi, baholanadi. Lekin hanuz: “Navoiyning falon asari bus-butun o`rganib bo`lindi”, — deyilgani yo`q. Bu durdonalar zamiridagi go`zallik va joziba, sehr-sinoat va sirlarni kashf etish ilmiy jamoatchiligimiz oldidagi muhim vazifalardandir.

Adabiyotshunos olim R.Vohidov tomonidan XXV asrning ikkinchi yarmiga kelib, o`zbek adabiyoti o`z tarixiy taraqqiyotining yuqori cho`qqisiga ko`tarilganligi, Alisher Navoiy asarlarining bu borada katta ahamiyat kasb etganligi ta`kidlanadi<sup>14</sup>. Shuningdek, olim ko`plab Sharq mumtoz adiblari qatori Alisher Navoiy asarlarida badiiy adabiyot va uning insoniyat ma`naviy kamolotida tutgan o`rni masalasi yetakchi muammo sifatida turganligini asoslaydi. Olimning kuzatishlaricha, o`tmish ijodkorlarining nazariy qarashlari, qo`llagan atamaları davrimiz adabiyotshunosligi istilohlariga aynan mos kelmasligi ta`kidlanadi va biz ham shu xulosa tarafdorimiz. Ko`plab mumtoz ijodkorlar qatori Alisher Navoiy asarlarida ham “suxan-so`z” va uning ta`rifiga turfa rangin misralar bitilgan bo`lib, buning boisi ularda so`z badiiy adabiyot va uning janrlari ma`nosida qo`llangan. Darhaqiqat, Alisher Navoiy badiiy so`z, uning jamiyatlardagi o`rni, inson taqdirida tutadigan tarbiyaviy mohiyatiga g`oyat yuksak baho beriladi. Fikrimiz isbotini shoirning asarlarida so`zga berilgan ta`riflar, tashbih va baholar misolida keltirish mumkin. Jumladan, buyuk shoir “Hayrat ul abror” dostonida so`z ta`rif va tavsifiga quyidagi satrlarni bag`ishlagan edi:

¹³ A.Rasulov. Badiylik – bezavol yangilik (ilmiy-adabiy maqolalar, talqinlar, etyudlar), “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi Bosh tahririyati. T.: -2007. 337 b. 123-bet.

¹⁴ Воҳидов Р., Маҳмудов М. Иймон – қалб гавҳари: Адабий-фалсафий ўйлар. – Т.: “Маънавият”, 1999. – 200 б. 9-б.

Date: 9th December-2025

Ham so`z ila elga o`lumdin najot,
Ham so`z ila tpoib o`lik tan hayot.
So`z bila kufr ahli musulmon bo`lub,
So`z bila hayvon degan inson bo`lub.
Bir so`z etib oncha baliyatni daf`,
Kim sochibon ganj yetishmay bu naf`.
Ma`dani inson guhari so`z durur,
Gulshani odam samari so`zdurur.¹⁵
(Asarlar, 6-jild, T., 1965, 155-bet)

Ko`rinib turibdiki, Alisher Navoiydagi katta hayotiy tajriba so`z vositasida necha-necha xazinalar taqdirini hal qilish mumkinligi haqidagi chuqur falsafiy xulosani keltirib chiqarmoqda. Insonning ma`naviy kamolotga erishuvi yo`lida aynan so`zning beminnat xizmati yotishi haqidagi mulohazalarni shoir asarlari sahifalarida bot-bot uchratish mumkin.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot mavzusini yoritishda tahlil, tasniflash, umumlashtirish usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqot obyekti: Tadqiqotning obyekti sifatida Alisher Navoiy ijodiy merosi namunalari, ularni o`rganish, tahlil qilish jarayoni tanlangan.

Muhokama va natijalar. So`z avvali-oxir adabiyotning quroli bo`lgan. Poetika aslida asar tilini talqin etishdan boshlangani ma`lum. Jumladan, "So`z va iboradan maqsad ma`nodir"<sup>16</sup> deb bilgan Navoiy o`zining "Muhokamat ul- lug`atayn" asarida turkiy tilning o`ziga xosligi va cheksiz imkoniyatlarini yoritish bilan birga arab va fors tillarining ham fasohat va tafovutlarini, ularning badiiyat ziynati yuksak qadrlanishini ham e`tirof etadi. Adabiyotshunos M. Qodirov juda o`rinli ta`kidlaganidek, "Muhokamatul-lug`atayn"ning biz tilshunos va adabiyotshunoslarga o`rnak bo`ladigan yana bir xislati bor. Navoiy asarda til masalalarini adabiyotdan-badiiyatdan ajratib, alohida holda tekshirmaydi, tildagi xususiyatlarni badiiy nutq talabiga evirgan holda ko`radi. Agar bu asarni chuqurroq, o`rganib chiqsak, hozirgi til va adabiyot ilmidagi kemtikning sabablarini ceza boshlaymiz".¹⁷ Bu va boshqa ko`plab asarlarida Navoiy so`z, ma`no va badiiyat masalalariga katta mas`uliyat bilan qaragan.

Asl filologiya hanuz so`zni ardoqlash, uni parvarishlash imkoniyatlarini yuzaga chiqarish, deyishadi. Kalom odam va olamni qayta kashf etadi. "Poeziyaning materiali obrazlar emas, emotsiyalar emas, balki so`zdir. Poeziya so`z san`atidir, poeziya tarixi so`zchilik ("slovesnost") tarixidir".¹⁸

Alisher Navoiy o`zining o`lmas asarlarini, asosan, turkiy tilda yaratdi. U ona tilining beqiyos imkoniyatlarini bus-butun yuzaga chiqara oldi. Navoiy ijodi tufayli turkiy til jahondagi barhayot tillar qatoridan muqim o`rin egalladi. Chunonchi, benazir zullisonayn shoirimizning ruboiylaridan biriga razm solaylik:

¹⁵ Alisher Navoiy. Asarlar, 6-jild, T., 1965, 155-bet

¹⁶ Алишер Навоий. Мухокамат ул-луғатайн. Т.: 2014, 69-б.

¹⁷ Қодиров М. Навоийнинг тилшуносликдаги майората // Тилшуносликнинг долзарб масалалари (Ўз МУ илмий мақолалар тўплами). — Тошкент: Университет, 2002, 85-бет.

¹⁸ Жирмунский В.М. Теория литературы. Поэтика. Стилистика. — М.: Наука, 1977. С. 22.



Date: 9th December-2025

Xub el bila suhbat tutubon, xub o'lg'il,
Yaxshini talab qilg'ilu matlub o'lg'il.
Shirin so'z ila xalqqa marg'ub o'lg'il,
Yumshoq de hadisingniyu mahbub o'lg'il.

Tomchida quyosh aks etadi, deganlaridek, Navoiyning hamisha insonlarni komillikka boshlashdek olijanob maqsadi va chuqur hayotiy g'oya-fikrlarni go'zal shaklda ifodalash san'ati ushbu muxtasar she'rida ham yaqqol namoyon. She'r matnidagi barcha so'zlar ma'nodor va ohangdorligi bilan uning ta'sirchanligini oshiradi. Garchi qofiyalari arabcha va forscha so'zlar bo'lsa-da, (**xub**-yaxshi, **matlub**-talab qilingan, **marg'ub**-yoqimli, **mahbub** -sevimli, do'st ma'nolarida qo'llangan) ular o'zbekcha so'z-iboralardek asosiy fikr va tuyg'ularni kuchaytirib, she'rning g'oyaviy mazmunini yorqin ifodalashga xizmat qiladi. So'zni malham deb bilgan Navoiy mazkur ruboiy matnidagi har bir so'z, hatto tovush-ohangigacha e'tibor bergan. Navoiyning bunday mahorat saboqlari va qutlug'an'analari keyingi asrlarda ham ko'plab yetuk shoiru yozuvchilarimiz tomonidan muvaffaqiyatli davom ettirildi. Ta'kidlash joiz, badiiy adabiyot shu qadar rang-barang, tasvir ko'lami keng va teran olamki, ba'zan ayni bir so'z takrori ham turli darajadagi ma'no, ohang va ta'sirchanlik "kashf" etishi mumkin. Bu shoirning so'z tanlash mahoratidan va tilning haqiqiy zarshunosi ekanligidan bir nishonadir. Bularndan shunday xulosa kelib chiqadiki, arabcha-forscha so'z-iboralar qo'llanishi ham ijodiy bir an'ana sifatida keng tarqalgan. Arab-forscha so'z-iboralar xalqlarning tarixiy o'tmishidan guvohlik berishi bilan birga ularning yashash tarzi, tili va dini, madaniyati va ruhiyatidagi o'zaro yaqinlik va mushtaraklikni ham aks ettirib turadi. Bu esa tillarning bamisoli bir guldasta yanglig' o'zaro bir-birini boyitishidan hamda adabiy asarlar mazmuni, ohangdorligini kuchaytirishidan ham yorqin dalolatdir. Bular dunyo xalqlarining zavol bilmas umuminsoniy ma'naviy qadriyatlari va baynalmilal fazilatlarini sifatida bugun ham muhim ijtimoiy-estetik ahamiyat kasb etishi shubhasiz.

Xulosa: Ta'kidlash joizki, adabiyot hayotni va inson ichki va tashqi olamini san'atning boshqa turlariga nisbatan keng aks ettiradi. Insonning komillikka erishishiga, uning o'zligini anglashiga ta'sir ko'rsatadigan vositalar orasida, ayniqsa, adabiyot alohida ajralib turadi. Chunki adabiyot insonning qalb quvvati va aql- tafakkuri rivojini o'ziga xos tarzda mujassamlashtiradi. Unda qalbning hissiyot, tuyg'ulari, aqlning mantiqli mushohada, mulo- hazalari ajoyib tarzda uyg'unlashgan bo'ladi¹⁹, deya ta'kidlaydi adabiyotshunos A. Ulug'ov, Darhaqiqat, badiiy asar tili yozuvchining g'oyaviy-badiiy niyatini ro'yobga chiqaruvchi vosita, oynadir. Badiiy til informatsiya yetkazish barobarida, katta emotsional-ekspressiv, estetik ta'sir kuchiga ham ega. Fikrimiz isbotini mutafakkir shoirimizning birgina so'z tarifi, tavsifida keltirgan, ya'ni Navoiy ta'biricha so'z – dur-u javohir, so'z – gavhar, so'z – yuksak ma'naviy xazina, so'z – til, so'z – aloqa vositasi, so'z – badiiy adabiyot, so'z – nazm-u nasr, so'z – abadiyat darakchisi, so'z – tafakkur hosilasi

¹⁹ Abdulla Ulug'ov, Adabiyotshunoslik nazariyasi, Universitetlar va pedagogika institutlari filologiya, jurnalistika fakulteti talabalari uchun darslik. G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. Toshkent – 2017. 308 bet, 9-b.



Date: 9th December-2025

kabi ma'nolarda talqin etilganligida ko'rish mumkin. Bu ta'rif va talqinlar yakuniy xulosa bo'lmay, ular hali necha -necha sahifalar qatida davom ettirilishi kutilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Алишер Навоий. Муҳокамат ул-луғатайн. Т.: 2014, 69-б.
2. Воҳидов Р., Маҳмудов М. Иймон – қалб гавҳари: Адабий-фалсафий ўйлар. – Т.: “Маънавият”, 1999. – 200 б. 9-б.
3. A.Rasulov.Badiiylik – bezavol yangilik(ilmiy-adabiy maqolalar, talqinlar, etyudlar),“Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi Bosh tahririyati.T.: - 2007.337 b.123-bet.
4. Abdulla Ulug'ov, Adabiyotshunoslik nazariyasi, Universitetlar va pedagogika institutlari filologiya, jurnalistika fakulteti talabalari uchun darslik. G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. Toshkent – 2017. 308 bet, 9-b.
5. Бахтин М.М. Эстетика словесного творчества. - М., 1979. - С. 335.с.3.
6. Жирмунский В.М. Теория литературы. Поэтика. Стилистика. —М.: Наука, 1977. С. 22.
7. Қодиров М. Навоийнинг тилшуносликдаги маҳорати// Тилшуносликнинг долзарб масалалари (Ўз МУ илмий мақолалар тўплами). — Тошкент: Университет, 2002, 85-бет.
8. Фитрат А. Танланган асарлар. IV жилд. —Тошкент: Маънавият, 2006. 12-13-бетлар.
9. В.То'хлиев, Adabiyot (AL va KHK uchun darslik). – Т.: O'qituvchi, 2002. – 9-bet.
10. Manzar Abdulxayr. Alisher Navoiy asarlarining izohli lug'ati, - Т.: “O'zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2018. – 560 b.

